Некоторые вопросы инноваций в развитии банковской деятельности.....	898
<b>Джураев К. Т.</b>	
Применение цифровых технологий в противодействии финансовым мошенничествам .....	905
<b>Гадаев Исмат Ядгарович</b>	
Turizm sohasida kadrlar tayyorlashga ilmiy-nazariy yondashuvlar va kadrlarning zamonaviy kompetensiyalari .....	909
<b>Yuldasheva Dilnoza Ulug‘bekovna</b>	
Tijorat banklarining passiv operatsiyalarini samarali boshqarishni takomillashtirish.....	913
<b>Sarimov Shaxbozali Soatali o‘g‘li</b>	
Kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi tahlili .....	919
<b>Suvonov Ibrohim Izbasarovich, Yoqubjonov Azizjon Qobiljon o‘g‘li</b>	
Pulga talab va taklifni statistik prognozlash masalalari .....	923
<b>Ibrohimov Muhammadjon Abdullajanovich</b>	
Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishda soliq tizimi.....	928
<b>Akbarov Akramjon Ibroximjonovich</b>	
Kichik biznes subyektlari faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish usullari .....	932
<b>To‘rayeva Nafisa Odiljonovna</b>	
Behavioral Theory of the Firm .....	938
<b>Egamberdieva Oydin Abror kizi</b>	
O‘zbekiston hududlarida turizm turlarini rivojlanish orqali bandlik darajasini oshirish.....	944
<b>Bolqiboyeva Ug‘iloy Bolqiboy qizi</b>	
Mintaqa soliq tizimida yashirin iqtisodiyot ta’sirini baholash omillari .....	949
<b>Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna, Sapayev Maxsudbek Karimovich</b>	
Sug‘urtaning iqtisodiyotdagi o‘rni va uning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar .....	953
<b>Iminov Toxirjon Karimovich</b>	
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini takomillashtirish .....	957
<b>Malikova Shoiray Baxtiyorovna</b>	
O‘zbekiston tikuv-trikotaj korxonalarining xalqaro bozorlardagi mavqeyini oshirish yo‘llari.....	962
<b>Vafoyeva Dilafruz Ikromovna</b>	
Kichik biznes sohasini istiqboldagi rivojlanishida davlat siyosati.....	968
<b>Abdug‘aniyev Murodjon Shavkat o‘g‘li</b>	
Innovative Development of Business Activity.....	972
<b>Son of Otakhanov Sardorbek Makhammadali</b>	
Aholi bandligini oshirishda xususiy tadbirkorlikning o‘rni.....	976
<b>Mamajonova Gulbaxor Toxirjon qizi</b>	
Turizm sohasida logistikani rivojlantirish masalalari .....	980
<b>Muxtorova Indirabonu Yasharbek qizi</b>	
Marketing logistikasining zamonaviy yondashuvlari.....	985
<b>Pardayev Sherzod Xolmurodovich</b>	



Raqamli transformatsiya sharoitida jamoat tashkilotlarini boshqarishni takomillashtirishga oid nazariy qarashlar .....	991
<b>Raxmonov Abduxalil Rasulovich</b>	
O'zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili.....	995
<b>Shodiyev Xurshedjon Karimovich, Ibragimov Elmurod Gulboynor o'g'li, Baxtiyorov Sherali Muzaffarovich, Burxanov G'ofur Baxodirovich</b>	
Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash infratuzilmasini rivojlantirishning innovatsion mexanizmini takomillashtirish .....	1000
<b>Shomurodova Mahliyo G'ulomjonovna</b>	
2020–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasini “yashil” energiya bilan ta'minlash uchun olib borilayotgan islohotlar .....	1004
<b>Tojiyev Bilol Abdirosulovich, Azimov Erkin Umidovich</b>	
Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni takomillashtirish asosida inson kapitalini rivojlantirish .....	1009
<b>Ubaydullayev G'ayrat Zuvaytovich</b>	
Ways to improve internal audit in enterprises in the digital economy .....	1014
<b>Kodirova Zulhumor Namazovna</b>	
Investment Management is an Important Factor of Economic Development.....	1019
<b>Yuldasheva G. A., Ziyayev Dilshodjon</b>	
Tadbirkorlik kambag'allikni qisqartirish asosiy omilidir.....	1022
<b>Aliyev Akmal, Bozorova Ozoda Raximovna</b>	
Kichik biznesni mahalliy darajada boshqarish holatini baholashda mavjud iqtisodiy salohiyatni hisobga olgan holda yondashish uslubiyoti.....	1026
<b>Ubaydullayev Akmal Tulkinboyevich</b>	
Формирование механизмов стратегического управления развития химической отрасли.....	1033
<b>Бибутова Шахло Саъдуллаевна</b>	
Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini samarali tashkil etish mezonlari va omillari.....	1038
<b>Z. Abdikarimova, S. Madaminov</b>	
Особенности банковского кредитования и факторы препятствующие финансово-кредитной поддержке субъектов сферы туристических услуг.....	1042
<b>Каримова Азиза Махомадризовна, Розоков Мухаммадазиз Мансурович</b>	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznesning amaliy ahamiyati.....	1047
<b>Mamajanova Gulbaxor Toxirjon qizi, Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li</b>	
Milliy innovatsion tizimning shakllanishida oliy ta'lim muassasalarining innovatsion rivojlanish prinsiplari...	1052
<b>Nishonov Dilshod Shamsiddinovich</b>	
Oliy ta'limda o'quv jarayonini samaradorligini oshirishda multimediya texnologiyalaridan foydalanish.....	1058
<b>Saydullayeva Saodat Abdumajidovna</b>	
Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishda mikromoliyalash-tirishning xususiyatlari .....	1063
<b>Tojiyev Javlonbek Rustamovich</b>	
O'zbekiston Respublikasi fiskal siyosatining siklik xususiyatini aniqlash masalalari .....	1067
<b>Sheraliev Javoxirbek Jaxongir o'g'li</b>	
Управление хозяйственной деятельностью торговых предприятий.....	1073
<b>Юлдашева Гульмира Азатовна, Зияев Дилшоджон</b>	



# DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MUNOSABATLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH MEZONLARI VA OMILLARI

**Z. Abdikarimova**

Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

**S. Madaminov**

Urganch davlat universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Butun dunyoda infratuzilma bilan bog'liq masalalar, jumladan, yangi infratuzilmani barpo etish, mavjud infratuzilma obyektlarida boshqaruv samaradorligini oshirishda davlat-xususiy sheriklik munosabatlari tobora rivojlanib bormoqda. Bunda, eng muhim bosqich sheriklik munosabatlarini tashkillashtirish bosqichi hisoblanadi. Ushbu maqolada sheriklik munosabatlarining muvafaqqiyatli tashkillashtirishda davlat-xususiy sherikligining o'ziga xos jihatlari o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** infratuzilma, loyiha, investitsiya, moliyalashtirish, xususiy sektor, ish o'rinlari.

**Abstract:** All over the world, public-private partnerships are increasingly developing in infrastructure-related issues, including the construction of new infrastructure and the improvement of management efficiency in existing infrastructure facilities. In this case, the most important stage is the stage of organizing partnership relations. This article examines the specific aspects of public-private partnership in the successful organization of partnership relations.

**Key words:** infrastructure, project, investment, financing, private sector, jobs.

**Аннотация:** Во всем мире государственно-частное партнерство все активнее развивается в вопросах, связанных с инфраструктурой, включая строительство новой инфраструктуры и повышение эффективности управления существующими инфраструктурными объектами. В данном случае важнейшим этапом является этап организации партнерских отношений. В данной статье рассматриваются специфические аспекты государственно-частного партнерства в успешной организации партнерских отношений.

**Ключевые слова:** инфраструктура, проект, инвестиции, финансирование, частный сектор, рабочие места.

## KIRISH

Bugungi kunda ko'plab mamlakatlarda infratuzilma tizimini isloh qilish, shuningdek, yangi obyektlarni barpo etish va moliyalashtirishning yangi manbalarini izlab topishda davlat-xususiy sheriklik munosabatlari tobora rivojlanib, yangi mazmun kashf etmoqda <sup>[1]</sup>. O'z navbatida, bu munosabatlar dunyo miqyosida keng ko'lamdagi o'zgarishlarga sabab bo'lib, ko'plab mamlakatlarning taraqqiyot yo'lini ko'rsatib bermoqda. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlari xususiy sektor tomonidan infratuzilmani qurish, loyihalash, boshqarish borasidagi uzoq muddatli kelishuv va ushbu kelishuvdan maqsad obyektning to'liq yoki muhim qismini moliyalashtirish uchun xususiy sektor kapitalidan foydalanishni nazarda tutadi <sup>[2]</sup>. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlari o'zining ahamiyatini ko'rsatishi uchun ushbu munosabatlarni oqilona amalga oshirish asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Muvafaqqiyatli DXSH loyihalari oxir-oqibatda puxta o'ylangan tashkiliy mexanizm va istiqbolli siyosatning mahsuli deyish mumkin <sup>[3]</sup>.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda va xorijda davlat-xususiy sheriklikning umumiy qabul qilingan ta'rifi mavjud emas. Bu umumiy maqsadlarga erishish borasida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikning keng ko'lamli ekanligi bilan izohlanadi. O'zbekistonda birinchi DXSHmodellari 2017-yildan keyin amalda qo'llanila boshlandi. Shu sababli ham DXSHmasalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar soni nisbatan ozchilikni tashkil qiladi. Mahalliy mutaxassislardan G. Ismoilova davlat-xususiy sheriklikni innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning muhim vositasi sifatida e'tirof etadi, uning fikricha, davlat-xususiy sheriklik innovatsion ekotizim tashkil etuvchisi hisoblanadi (Ismoilova, 2022). Belorussiyalik mutaxassis S.A. Kasperovich davlat-xususiy sheriklikni ta'lim xizmatlari bozori samaradorligini oshirishning muhim vositasi va moliyalashtirish manbai sifa-



tida e'tirof qiladi, u ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni ta'lim klasterlari, texnoparklar tashkil qilish orqali yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratadi (Kasperovich, 2020).

Shuningdek, Kamilova (2020) davlat-xususiy sheriklikni innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning rag'batlantiruvchisi ekanligini ta'kidlaydi, uning fikricha, davlat-xususiy sheriklik xususiy investitsiyalar oqimining kengayishiga, davlat zimmasiga yuklatilgan vazifalarning xususiy sektorga o'tkazilishi orqali budget xarajatlarini maqbullashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini yo'lga qo'yish O'zbekistonda endi rivojlanayotganligini va bu borada ilmiy izlanishlarni yanada chuqurlashtirishni talab qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'rganish jarayonida mavzu bo'yicha statistik ma'lumotlar va nazariyalarni o'rganishda mantiqiy fikrlash, ilmiy kuzatish, tizimli yondashuv, statistik usullar qo'llanildi. Tahlil davomida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining statistik ma'lumotlaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat-xususiy sherikchilik munosabatlari o'ta murakkab jarayon hisoblanib, bunda sheriklarning bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan intilishlarini birlashtirishga to'g'ri kelishi sababli boshqaruv jarayoni va munosabatlarning tashkiliy shaklini yaratishda ichki nomutanosibliklar va ziddiyatlarning vujudga kelishiga guvoh bo'lish mumkin.

Davlat va xususiy sherik tomonidan ushbu munosabatlarga dastlabki va keng qamrovli tayyorgarlik ko'rish davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini samarali tashkil qilishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayni ushbu bosqichda muvafaqqiyatli hamkorlikni ta'minlash maqsadidagi barcha vazifalar va majburiyatlar kelishib olinadi. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlari yillar mobaynida mamlakatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik o'zgarishlar natijasida tashkiliy mexanizmini o'zgartirib boradi<sup>[4]</sup>. Tayyorgarlik ko'rish o'z ichiga xususiy investitsiya imkoniyatlaridan kelib chiqqan holatda loyihani rivojlantirish rejasini yaratish va muntazam ravishda yangilab turushni qamrab oladi. Bunga qo'shimcha ravishda, davlat sherik sifatida qo'llab-quvvatlash borasidagi kafolat va rejadagi xususiylashtirilgan loyihalarga qiziqishni uyg'otish yuzasidan rivojlanish maqsadlari va resurslar imkoniyatini aniqlanishi kerak bo'ladi. Buning muhimligini shunda ko'rishimiz mumkinki, bu sheriklarga jamiyatda loyihani rivojlantirish imkoniyatlarining haqiqiy qamrovi qanday darajada ekanligini tushunib olishini yengillashtiradi<sup>[5]</sup>. Dastlabki bosqichda davlat o'zining institutsional imkoniyatlariga aniq baho berishi lozim bo'ladi. Bunda, sherikchilik munosabatlarini qo'llab-quvvatlovchi davlat tashkilotlarning mavjud bo'lishiga e'tibor qaratish kerak. Davlat sherik sifatida turli murakkabliklarga ega bo'lgan xususiy sherik bilan muzokaralar olib borish maqsadida yetarli tajribaga ega bo'lishi va hamkorlikni rivojlantirishga yordam berish maqsadida bir yoki bir nechta konsultantlarni (maslahatchilarni) saqlab turishi lozim.

Oldindan ko'zlangan maqsadlar dasturi davlat uchun imkoniyatlar, niyatlar va jamiyat uchun o'ta muhim bo'lgan maqsadlarni o'zida namoyon eta olishi kerak. Davlat (mahalliy hukumat) o'zining uzoq muddatli maqsadlarini, shuningdek, mabodo loyiha bo'yicha biror bir savollar vujudga kelib qoladigan holatda, ularni bartaraf qilishning yo'llarini ishlab chiqishi kerak. Og'zaki yoki yozma shaklda tasvirlangan butun rivojlanish strategiyasi davlat uchun ham xususiy sektor uchun ham loyiha dasturini tushunishni kafolatlashi kerak<sup>[6]</sup>. Keyingi bosqichda oldinga qo'yilgan maqsad qanday amalga oshirilishi va unda davlat sherigining maqsad qilib olingan loyihani tashkil etish va amalga oshirishga tayyorgarlik darajasi aniqlanadi.

Davlat sherik sifatida loyihani amalga oshirishni boshlashdan oldin quyidagilar bo'yicha masalarni hal qilib olishi kerak:

- yer bilan bog'liq masalalar;
- joyning atrof-muhit bilan bog'liq bo'lgan tahlili;
- bozor talabi va moliyaviy imkoniyatlar darajasi;
- investitsiya, rivojlanish va boshqaruv jarayonini tashkil etish masalasi;
- texnologik imkoniyatlar darajasi;

Konsultantlar jarayonni amalga oshirish davomida davlat uchun o'zlarining tavsiyalarini ishlab chiqadilar.


Keyingi muhim masala davlat jamg'armalarida taqchilligining oshib borishi sharoitida moliyaviy mablag'lardan samarali foydalanish, shuningdek bu borada barcha mavjud bo'lgan va jalb qilish mumkin bo'lgan mablag'lar yuzasidan chuqur mulohaza olib borish davlatning sherikchilik munosabatlaridagi muhim ishtiroklardan biri hisoblanadi. Bunda, davlat va notijorat tashkilotlarning mablag'lari, jumladan, grantlar, soliqlarni oshirish vositalari (amalga oshirish mumkin hollarda), mahalliy aylanma kredit jamg'armalaridan foydalanishga e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Xususiy sektorning ishtiroki masalalari. Avvalo, xususiy sherik munosabatlarga kirishishdan oldin shaffoflikni ta'minlashga tayyor bo'lishi lozim. Jarayonning ba'zi qismlari, ayniqsa, loyiha takliflari bo'yicha raqobat davrida, ba'zi bir ma'lumotlarning oshkor etilmasligiga qaramasdan, xususiy sektor o'zi to'grisidagi ma'lumotlarni davlat tekshiruviga ochiq qilish uchun tayyor bo'lishi kerak. Ushbu asosiy tamoyilni tan olish barcha keyingi



bosqichlardan oldin bo'lishi kerak. Bunday shaffoflik maqbul bo'lmasa loyihadan uzoqlashish kerak. Davlat aniq maqsadlar va loyihalarni belgilash davrida, xususiy sherik investorlarga davlat-xususiy sherikchilik munosabatlariing tabiatini tushuntirishi kerak. Davlat xususiy sherikni tayyorgarlik fazasida barcha muhim ma'lumotlar bilan ta'minlashi lozim. Xususiy sherik, shuningdek, loyihani amalga oshirish imkoniyatini aniqlashi va uni baholashi, loyihaning mavjudligini tekshiruvdan o'tkazishi kerak. Xususiy sektor loyiha va DXSHni amalga oshirish bo'yicha o'zining takliflarini ishlab chiqishi mumkin.

Umuman olganda, ushbu jarayonni quyidagicha tasvirlash mumkin(1-chizma):



1-chizma: Davlat-xususiy sheriklik munosabatlari tashkillashtirish bosqichlari va omillari:

Manba: To'plangan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yuqoridagi chizmadan ko'rinib turganidek, davlat-xususiy sheriklik munosabatlariing tabiati juda murakkab hisoblanib, bunda ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik, texnik va madaniy omillarni ham hisobga olish lozim bo'ladi. Shu bilan bir qatorda loyiha dastlabki bosqichdan amalga oshirishgacha bo'lgan davrda bir nechta murakkab bosqichlarni bosib o'tadi. Har bir bosqichda davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirishning o'ziga hos maqsadlari va mezonlari mavjud.

Davlat-xususiy sheriklik munosabatlari tashkillashtirishda ijtimoiy o'lchovlar. Mamlakat ichidagi ijtimoiy me'yorlar odamlarning hatti-harakatlarini sezilarli darajada o'zgartirishi mumkin va bu oxir oqibatda mamlakatda mavjud tizim va tuzilmalar faoliyatiga ma'lum bir darajada ta'sir ko'rsatadi. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining murakkab tabiati sabab, ayrim davlatlarda ushbu sheriklik munosabatlari xususiylashtirish tushunchasi bilan ayniylashtirilgan va jamiyat tomonidan osonlikcha qabul qilinmagan<sup>[7]</sup>. Ko'plab mamlakatlarda davlat-xususiy sheriklik munosabatlari tushunchasi yangi konsepsiya bo'lganligi bois odamlar xizmat ko'rsatish sifati, to'lovlar, atrof-muxitga ta'siri, yangi ish o'rinlari bo'yicha ikkilanishlarga ega. Natijada bu sheriklik munosabatlariing ahamiyatini tushinib olishda ma'lum bir chalkashliklarni vujudga keltirishi mumkin.



Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini tashkillashtirishda xuquqiy o'lchovlar. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini qo'llab-quvvatlovchi huquqiy va me'yoriy baza murakkab shuningdek uzoq muddatli kelishuvlarda loyihani muvofaqiyatli amalga oshirish, investitsiyalarni kengroq jalb qilish, transaksiya xarajatlari kamaytirish, tartibga solish va nazoratni ta'minlash, shartnoma bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni hal qilishga ko'maklashadi. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini tashkil qilishda huquqiy o'lchov qiyidagilardan iborat bo'lishi lozim.

- DXSH loyahasini amalga oshirishga imkon beradigan va uning ishlashini osonlashtiradigan qoidalar (masalan, DXSH kompaniyasini tashkil yetishning qonuniy huquqi, davlat aktivlari nodavlat shaxslarga berilishi mumkin bo'lgan shartlar).
- hukumatlarga tegishli hollarda moliyalashtirish imkonini beruvchi qoidalar (masalan, subsidiyalar berish yoki DXSH shartnomasining amal qilish muddati davomida davlat xarajatlari bo'yicha uzoq muddatli majburiyatlarni olish) <sup>[8]</sup>.

Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini tashkillashtirishda iqtisodiy o'lchovlar. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining muvofaqiyati bevosita tomonlar maqsadlarining iqtisodiy jihatdan ro'yobga chiqishiga bog'liq. Shu sababdan sheriklik munosabatlari davlat va xususiy sektor o'rtasida ma'suliyat, xarajat, xavflar va rollarni adolatli taqsimlanishini inobatga olish lozim. Davlat-xususiy sheriklik loyihalari shuningdek, tomonlar uchun iqtisodiy barqaror va jozibali bo'lishi kerak. Davlat budjetining holati, aholi soni, pul massasi va investitsiyalar yalpi ichki mahsulotdagi ulushi DXSH faoliyatining muhim omili hisoblanadi <sup>[9]</sup>.

Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini tashkillashtirishda madaniy o'lchovlar. Bilamizki, davlat-xususiy sheriklik munosabatlari o'z ichiga hukumat, tadbirkorlik subektlari, turlicha kelib chiqishga ega jamoalarni olishi mumkin. Sheriklik munosabatlarida yana bir muhim jihat xususiy sektor jamoatchilik talablariga va davlat sektori tomonidan qo'yilgan shartlarga javob beradigan xizmat ko'rsatish uchun bir qator ijtimoiy muammolarni o'z zimmalariga olishlari kerak.

Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini tashkillashtirishda texnik o'lchovlar. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlari yuqorida ta'kidlanilganidek uzoq muddatli kelishuv shakli hisoblanadi. Shu sababdan sheriklik jarayonida shartnoma shartlari va texnologiyalarning o'zgarib turishini inobatga olishi va shunga mos ravishda kerakli o'rinlarda shartnoma shartlarini shunga mos ravishda moslashuvchan bo'lishini taqazo etadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qiladigan bo'lsak, davlat-xusiy sheriklik munosabatlarini tashkillashtirish masalasi juda murakkab hisoblanib, u bir nechta bosqichlar va mezonlarni qamrab oladi. Sheriklik munosabatlarining muvofaqiyatli amalga oshirilishi bir nechta tamoyillarga asoslanadi. Umuman olganda ushbu jarayon o'ziga hos murakkabliklardan iborat bo'lib, sheriklik munosabatlarida qatnashayotgan tomonlar javobgarliklari va majburiyatlarini to'g'ri tushinib yetishi ko'zlangan maqsadga erishish yo'lini osonlashtiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bing Li, Akintola Akintoye, Cliff Hardcastle. Conceptual framework for construction public private partnerships. [https://www.arcom.ac.uk/-docs/proceedings/ar2000-229-240\\_Li\\_Akintoye\\_and\\_Hardcastle.pdf](https://www.arcom.ac.uk/-docs/proceedings/ar2000-229-240_Li_Akintoye_and_Hardcastle.pdf)
2. Yescombe E.R., Farquharson E. Public-Private Partnerships for Infrastructure: Principals of Policy and Finance. 2nd Edition. Butterworth-Heinemann, 2018. ISBN: 978-0-08-100766-2.
3. Kalpana Gopalan. Public Private Partnerships: A Study of Organisational Design: Journal of Management & Entrepreneurship (JME) Vol 10 (2), 2016. · Jul 1, 2016.
4. Miles, R.E., & Snow, C.C. (1992). Causes of Failure in Network Organizations. California Management Review, 34(4), 53-72.
5. Huanming Wang, Wei Xiong, Guangdong Wu & Dajian Zhu. Public-private partnership in Public Administration discipline: a literature review. Public Management Review. DOI: 10.1080/14719037.2017.1313445.
6. Public-Private Ptnership Handbook. Asian Development Bank. <https://www.adb.org/sites/default/files/institutional-document/31484/public-private-partnership.pdf>
7. Gunnigan, L., Rajput, R., 2010. Comparison of Indian PPP Construction Industry and European PPP Construction Industry: Process, Thresholds and Implementation. Proceedings of CIB World Congress 2010, Salford.
8. I. Yitmen, İlknur Akiner, I. Tekce. Applicability Of Second Generation Public Private Partnership Projects (PPP) in Turkey: A Conceptual Framework. 2012. <https://www.semanticscholar.org/paper/APPLICABILITY-OF-SECOND-GENERATION-PUBLIC-PRIVATE-A-Yitmen-Ak%25B1ner/41cced407c0817ae39d5ae9a885e50acdf43fa5c>
9. Hakan Yurdakul, Rifat Kamaşak, Tülay Yazar Öztürk. Macroeconomic drivers of Public Private Partnership (PPP) projects in low income and developing countries: A panel data analysis. Borsa Istanbul Review. Volume 22, Issue 1, January 2022, Pages 37-46.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 5**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.